QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ZAMONAVIY TA’LIM TALABLARIDA PEDAGOGLARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI BAHOLASH MEXANIZMLARI

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.135

Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti ***Axbutayeva Feruza***

Annotatsiya. Tadqiqot pedagog kadrlarning lingvistik kompetensiyasini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish samaradorligini o‘rganishga qaratilgan. 289 tinglovchi ishtirokida o‘tkazilgan tajriba natijalari tajriba guruhida lingvistik kompetensiyaning sezilarli o‘sishini ko‘rsatdi, past daraja 29 % ga kamayib, yuqori daraja 37 % ga oshdi. Integrativ metodlar, refleksiv topshiriqlar va elektron didaktik vositalar samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynadi.

Kalit so‘zlar: Lingvistik kompetensiya, pedagog kadrlar, integrativ yondashuv, baholash, Refleksiv ko‘nikmalar, elektron didaktik vositalar

Аннотация:Исследование направлено на изучение эффективности развития лингвистической компетенции педагогических кадров на основе интегративного подхода. Результаты эксперимента, проведённого с участием 289 слушателей, показали значительный рост уровня лингвистической компетенции в экспериментальной группе: доля низкого уровня снизилась на 29 %, а высокий уровень увеличился на 37 %. Интегративные методы, рефлексивные задания и электронные дидактические средства сыграли важную роль в повышении эффективности.

Ключевые слова:Лингвистическая компетенция, педагогические кадры, интегративный подход, оценивание, рефлексивные навыки, электронные дидактические средства.

Abstract.The study is aimed at investigating the effectiveness of developing teachers’ linguistic competence based on an integrative approach. The results of an experiment conducted with the participation of 289 trainees demonstrated a significant increase in the level of linguistic competence in the experimental group: the proportion of the low level decreased by 29%, while the high level increased by 37%. Integrative methods, reflective tasks, and electronic didactic tools played an important role in improving effectiveness.

Keywords:Linguistic competence, pedagogical staff, integrative approach, assessment, reflective skills, electronic didactic tools.


KIRISH.*Z*amonaviy ta’lim jarayoni tezkor ijtimoiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi [1]. Dunyoni idrok etish va talqin qilishning yangi usullari, raqamlashtirish va hayotning turli sohalarini avtomatlashtirish, shuningdek, zamonaviy ijtimoiy sharoit va o‘zgarishlar ta’lim tizimi oldida yangi paradigmalarni joriy etish hamda ta’lim sifatini doimiy takomillashtirish vazifalarini yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, pedagoglarning faoliyati nafaqat bilim berish bilan cheklanmay, o‘quv jarayonini baholash, o‘quvchilarning kognitiv va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, o‘z faoliyatini doimiy tahlil qilish va takomillashtirishga qaratilgan.

Jahon tajribasida kattalar va uzluksiz ta’limning rivojlanishiga YUNESKOning [2]. “hayot davomida ta’lim” konsepsiyasi asos bo‘lgan bo‘lib, u “anglashni o‘rganing”, “amalga oshirishni o‘rganing”, “birgalikda yashashni o‘rganing”, “yashashni o‘rganing” kabi tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Bu tamoyillar pedagog faoliyatida ta’lim sifatini ta’minlash, baholashning yangicha yondashuvlarini joriy etish, ta’lim dasturlari va metodik vositalarni modernizatsiya qilish zaruratini belgilaydi. Shu sababli rasmiy, norasmiy va informal ta’lim shakllarini pedagogik jihatdan uyg‘unlashtirish, individual ta’lim trajektoriyalarini loyihalash va pedagoglar faoliyatini baholash jarayonlarini metodologik asoslash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Jahon tajribasida pedagog kadrlarning baholash va kompetensiyalarini rivojlantirish tizimlari muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Finlyandiyada Kattalar Ta’limi Tashkiloti [3], Fransiyada “tajriba orqali olingan bilimlarni tasdiqlash” (Validation des Aquis de l’Expérience, VAE), Germaniyada “Uzluksiz ta’lim pasporti” (Weiterbildungspass) va “Kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim madaniyati” (Lernkultur Kompetenzentwicklung), Rossiyada esa “Lifelong Learning” konsepsiyasi pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida tatbiq etilgan. Ushbu tajribalar pedagoglar faoliyatida baholashning nazariy-metodologik asoslarini mustahkamlash, kognitiv va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi.

Mamlakatimizda pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish tizimi uzluksiz yangilanib, pedagoglarning baholash kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan innovatsion va interaktiv usullar joriy etilmoqda. Shu bilan birga, pedagoglar faoliyatini baholash va rivojlantirish jarayonida kompetensiyaviy yondashuvlar asosida o‘quv jarayonlarini loyihalash, elektron didaktik vositalar va ob’ektiv baholash mexanizmlarini yaratish dolzarb masalalardan biridir.

Baholash — ta’lim jarayonining muhim va ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchilar yoki tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini oldindan belgilangan mezonlar asosida o‘lchash, tahlil qilish va teskari aloqa (feedback) berish jarayonini anglatadi [4]. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar baholashni nafaqat nazorat vositasi, balki o‘quv jarayonini boshqarish, shaxsiy va kasbiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi sifatida qaraydi.



Diagnostik baholash – o‘quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladi. Bu baholash turi tinglovchilarning boshlang‘ich bilim, ko‘nikma va malaka darajasini aniqlashga qaratilgan. Diagnostik baholash pedagogga o‘quv materialini daraja va murakkablik darajasiga moslashtirish, individual yondashuvni shakllantirish va o‘quv jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. U asosan testlar, so‘rovnomalar, diagnostik topshiriqlar va boshlang‘ich portfellar orqali amalga oshiriladi.

Formativ baholash – o‘quv jarayonida uzluksiz amalga oshiriladigan baholash turi bo‘lib, tinglovchilarning bilim va ko‘nikmalarini nazorat qilish hamda yo‘naltirishga xizmat qiladi. Formativ baholash o‘quvchilarga real vaqt rejimida teskari aloqa berib, xatolarni aniqlash va tuzatish, shuningdek, motivatsiyani oshirish imkonini yaratadi. Ushbu turdagi baholash metodlari: qisqa testlar, laboratoriya ishlaridagi kuzatuvlar, guruh ishlari, savol-javoblar, reflektiv jurnallar va portfolio baholash.

Summativ baholash – kurs yoki ta’lim moduli yakunida amalga oshiriladi va umumiy natijalarni baholashga qaratilgan. Bu turdagi baholash o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini tizimli ravishda o‘lchash, ularning kasbiy va akademik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Summativ baholash odatda yakuniy imtihonlar, loyihaviy ishlar, mustaqil ishlar va portfoliolar orqali amalga oshiriladi.

Baholashning samaradorligi uning mezonlari va metodlariga bog‘liq. Baholash mezonlari o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholashda aniq, o‘lchovli va adolatli bo‘lishi lozim. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Aniqlik va ob’ektivlik – baholash natijalari shaxsiy qarashlardan mustaqil bo‘lishi;

Shaffoflik – o‘quvchi o‘z bahosi qanday asosda berilganini tushunishi;

Qayta aloqa imkoniyati – baholash natijalari o‘quvchiga rivojlanish va takomillashish yo‘nalishini ko‘rsatishi;

Dinamika va davomiylik – baholash jarayoni o‘quvchining o‘sish dinamikasini kuzatishga xizmat qilishi.

Baholash metodlari ikki asosiy guruhga bo‘linadi:

Miqdoriy metodlar – testlar, viktorinalar, yakuniy baholar va ball tizimlari orqali bilim va ko‘nikmalarni raqamli ifodalash.

Mazmuniy metodlar – portfoliolar, loyihaviy ishlari, guruh ishlari, reflektiv jurnallar va kuzatuvlar orqali o‘quvchining kompetensiyalarini sifat jihatdan tahlil qilish.

Malaka oshirish tizimida baholash pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini, jumladan lingvistik, metodik va didaktik tayyorgarligini tizimli ravishda aniqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Integrativ yondashuv asosida olib boriladigan baholash nafaqat individual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi, balki malaka oshirish dasturlarining samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilish va takomillashtirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, baholash pedagoglarning kasbiy refleksiyasi va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini mustahkamlaydi, ularni zamonaviy ta’lim standartlariga moslashtiradi va o‘quv jarayonining sifatini oshiradi.

Baholash samaradorligi va ishonchliligi uni tashkil etuvchi tamoyillarga qat’iy rioya etilishiga bevosita bog‘liq. Tamoyillar baholash jarayonining ilmiy, pedagogik va metodik asoslarini belgilab beradi hamda uning ob’ektivligini, izchilligini va natijaviyligini ta’minlaydi. Ayniqsa, yozma nutqni baholashda ushbu tamoyillar o‘quvchi yoki tinglovchining haqiqiy kommunikativ kompetensiyasini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi [6].

Lingvistik kompetensiya — bu o‘quvchining til tizimi haqidagi nazariy bilimlari va ularni amalda to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyatini bildiradi. Bu tushuncha Noam Chomsky [5] tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, keyinchalik kommunikativ kompetensiya modeli doirasida keng talqin qilina boshlandi.

Baholash jarayonida lingvistik kompetensiya o‘quvchining grammatik to‘g‘rilik, leksik boylik, uslubiy moslik va nutq izchilligi orqali namoyon bo‘ladi. Bu komponentlarning har biri tilni samarali o‘zlashtirish va kommunikativ vaziyatda to‘g‘ri foydalanish uchun zarurdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda pedagog kadrlarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda baholashning integrativ modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlashga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayoni tizimlilik, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan, integrativ hamda diagnostik yondashuvlar asosida tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari Bilimlarni baholash agentligida tashkil etildi.

Tadqiqotda jami 289 nafar tinglovchi ishtirok etdi. Ular tajriba-sinov ishlarining mazmunidan kelib chiqib quyidagi guruhlarga ajratildi: tajriba guruhi – 145 nafar tinglovchi, nazorat guruhi – 144 nafar tinglovchi

NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari davomida pedagog kadrlarning lingvistik kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish samaradorligi aniqlanib, tajriba va nazorat guruhlari kesimida qiyosiy tahlil qilindi.

Dastlabki diagnostika natijalari tinglovchilarda lingvistik kompetensiyaning shakllanish darajasi yetarli emasligini ko‘rsatdi. Xususan, kasbiy nutqning aniqligi, terminologik savodxonlik, ilmiy-uslubiy matnlar bilan ishlash hamda refleksiv baholash ko‘nikmalarida qiyinchiliklar kuzatildi.

Formativ bosqichda ishlab chiqilgan integrativ metodika asosida maxsus o‘quv modullari, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar hamda refleksiv topshiriqlar joriy etildi.

Yakuniy diagnostika natijalari tajriba guruhida lingvistik kompetensiyaning barcha komponentlari bo‘yicha sezilarli o‘sish kuzatilganini ko‘rsatdi.

Lingvistik kompetensiya rivojlanish darajalari dinamikasi (% hisobida)

Tajriba guruhi

Daraja	Dastlabki holat	Yakuniy holat
Past	41 %	12 %
O‘rta	46 %	38 %
Yuqori	13 %	50 %

Nazorat guruhi

Daraja	Dastlabki holat	Yakuniy holat
Past	39 %	31 %
O‘rta	47 %	49 %
Yuqori	14 %	20 %

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida yuqori daraja 37 % ga oshgan, past daraja esa 29 % ga kamaygan.

MUHOKAMA

Tajriba natijalari pedagog kadrlarning lingvistik kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish samaradorligini aniq ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlar pedagogik baholashning nazariy asoslari bilan uyg‘un keladi va ilgari olib borilgan tadqiqotlar bilan moslikni ta’minlaydi (Vygotsky[8], 1978; Chomsky[7], 1965).

Tajriba guruhi natijalari shuni ko‘rsatdiki, lingvistik kompetensiyaning yuqori darajaga o‘sishi pedagoglarning interfaol metodlar, refleksiv baholash va elektron didaktik vositalardan foydalanishi bilan bevosita bog‘liq. Xususan kasbiy nutq madaniyati: pedagoglar o‘z nutqini aniq va mantiqiy ravishda tashkil qila boshladi, ilmiy va metodik terminlarni to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalari oshdi. Terminologik savodxonlik: tajriba davomida sohaviy atamalarni o‘z vaqtida va kontekstga mos qo‘llash qobiliyati sezilarli darajada yaxshilandi. Refleksiv ko‘nikmalar: pedagoglar o‘z ishlarini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va takomillashtirish yo‘llarini belgilashda faol bo‘ldi. Nazorat guruhi

bilan solishtirganda, tajriba guruhi pedagoglarining lingvistik kompetensiyasi yuqori darajada o‘sdi, bu esa integrativ metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar Styudent t-testlari yordamida tahlil qilindi va $p < 0,05$ darajasi bilan statistik jihatdan ishonchli farq aniqlanildi. Bu shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhi va nazorat guruhi o‘rtasidagi farq tasodifiy emas.

Bu natijalar ilgari olib borilgan xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi. Masalan, Finlyandiyada Kattalar Ta’limi Tashkiloti va Fransiyada VAE (Validation des Acquis de l’Expérience) tizimlarida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi lingvistik va metodik kompetensiyani oshirishda integrativ yondashuvning muhimligini ko‘rsatgan (UNESCO, 2015).

XULOSA

Ushbu tadqiqot pedagog kadrlarning lingvistik kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot 289 tinglovchi ishtirokida BBA o‘tkazilgan bo‘lib, tajriba guruhi (145 nafar) va nazorat guruhi (144 nafar) shaklida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida diagnostik, formativ va summativ baholash metodlari, shuningdek, interfaol o‘quv modullari, refleksiv topshiriqlar va elektron didaktik vositalar qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhi pedagoglarida lingvistik kompetensiyaning barcha komponentlari bo‘yicha sezilarli o‘sish kuzatildi: past daraja 29 % ga kamayib, yuqori daraja 37 % ga oshdi. Kasbiy nutq madaniyati, terminologik savodxonlik va refleksiv ko‘nikmalar sezilarli darajada rivojlandi, bu esa integrativ metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi. Nazorat guruhi bilan solishtirganda, o‘sish darajasi statistika jihatdan ishonchli farqni ko‘rsatdi ($p < 0,05$).

Shuningdek, tadqiqot natijalari xalqaro tajribalar bilan uyg‘unlikni ko‘rsatdi. Masalan, Finlyandiyada Kattalar Ta’limi Tashkiloti va Fransiyada VAE tizimlari pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi va lingvistik kompetensiyani oshirishda integrativ yondashuvning muhimligini tasdiqlagan.

Xulosa qilib aytganda, integrativ yondashuv asosida olib borilgan malaka oshirish kurslari pedagoglarning lingvistik kompetensiyasini samarali rivojlantiradi, ularning refleksiv va metodik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari pedagogik baholash tizimini takomillashtirish va kompetensiyaviy rivojlanishni metodologik asoslash uchun ilmiy va amaliy baza yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. (2016). Education for sustainable development: Learning objectives. Paris: UNESCO.

2. UNESCO. (2016). Global Education Monitoring Report: Education for All. Paris: UNESCO.

3. Finland National Board of Education. (2018). Adult education and lifelong learning in Finland. Helsinki: FNBE.

4. Validation des Aquis de l’Expérience (VAE). (n.d.). Professional experience validation in France. Retrieved from https://www.vae.gouv.fr

5. Weiterbildungspass. (n.d.). Lifelong learning passport in Germany. Retrieved from https://www.weiterbildungspass.de

6. Lifelong Learning Russia. (n.d.). Concept of lifelong learning in Russia. Retrieved from https://www.lifelonglearning.ru

7. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

8. Chomsky, N. (1965). Aspects of the theory of syntax. Cambridge, MA: MIT Press